Abstract. This article analyzes the international competitiveness of enterprises in Uzbekistan within the framework of World Trade Organization requirements from technological and financial perspectives. The study evaluates the innovation activity of regional industrial enterprises, the level of international certification, as well as liquidity and profitability indicators. Furthermore, the transformation of state support mechanisms under the WTO Agreement on Subsidies and Countervailing Measures (SCM Agreement) and the directions for enhancing competitiveness based on the “Green Box” principles are scientifically substantiated.

Keywords: World Trade Organization, international competitiveness, innovative development, technological modernization, financial stability, industrial enterprises, SCM Agreement, export potential, international standardization, regional economy, “Green Box”, global value chain.

Аннотация. В данной статье проведён технологический и финансовый анализ международной конкурентоспособности предприятий Узбекистана в условиях требований Всемирной торговой организации. В исследовании оценены инновационная активность региональных промышленных предприятий, уровень международной сертификации, показатели ликвидности и рентабельности. Также научно обоснованы направления повышения конкурентоспособности на основе принципов «Зелёной корзины» и трансформации механизмов государственной поддержки в условиях Соглашения ВТО по субсидиям и компенсационным мерам (SCM Agreement).

Ключевые слова: всемирная торговая организация, международная конкурентоспособность, инновационное развитие, технологическая модернизация, финансовая устойчивость, промышленные предприятия, Соглашение SCM, экспортный потенциал, международная стандартизация, региональная экономика, «Зелёная корзина», глобальная цепочка стоимости.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayonlarining chuqurlashuvi, xalqaro savdo liberallashuvi va raqobat muhitining keskinlashuvi milliy iqtisodiyotlar oldiga yangi strategik vazifalarni qo'yimoqda. Ayniqsa, Jahon savdo tashkiloti (JST) tizimiga integratsiyalashuv jarayonlari rivojlanayotgan davlatlar uchun korxonalar raqobatbardoshligini oshirish, sanoatni modernizatsiya qilish va xalqaro standartlarga moslashtirish zaruratini kuchaytirmoqda. JST qoidalari bojxona tariflari va proteksionistik mexanizmlarning bosqichma-bosqich



qisqarishini nazarda tutgani sababli, milliy korxonalarining barqaror rivojlanishi endilikda ularning texnologik tayyorgarligi, innovatsion faolligi va moliyaviy barqarorligiga bevosita bog'liq bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasining JSTga a'zo bo'lish jarayonining jadallashuvi mamlakat sanoat korxonalarini oldiga xalqaro raqobat talablariga moslashish, eksport salohiyatini kengaytirish hamda global qiymat zanjirlariga integratsiyalashuv kabi muhim vazifalarni qo'yimoqda. Shu bilan birga, hududiy sanoat korxonalarida asosiy fondlarning eskirishi, energiya sig'imining yuqoriligi, innovatsion faoliyatning sustligi va xalqaro sertifikatlash darajasining pastligi kabi muammolar mavjud. Mazkur holat JST sharoitida korxonalar raqobatbardoshligini kompleks baholash hamda texnologik va moliyaviy transformatsiya mexanizmlarini ilmiy asoslash zaruratini belgilab bermoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jahon savdo tashkiloti (JST) sharoitida korxonalar raqobatbardoshligini oshirish masalasi xalqaro iqtisodiyot, sanoat siyosati, innovatsion rivojlanish va institutsional transformatsiya nazariyalari kesishgan nuqtada shakllangan murakkab ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur masala bo'yicha xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan raqobat ustunliklari, global qiymat zanjirlari, innovatsion rivojlanish hamda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining JST talablari bilan uyg'unlashuvi yuzasidan turli ilmiy yondashuvlar ishlab chiqilgan.

Korxonalarining xalqaro raqobatbardoshligini nazariy jihatdan asoslab bergan klassik olimlardan biri M. Porter hisoblanadi. Uning "Millatlarning raqobat ustunligi" konsepsiyasiga ko'ra, mamlakat yoki hududning raqobatbardoshligi tabiiy resurslar emas, balki innovatsion salohiyat, texnologik modernizatsiya, institutsional muhit va korxonalar o'rtasidagi ichki raqobat darajasi bilan belgilanadi. Porterning "raqobat olmosi" modeli JST sharoitida korxonalarining eksport salohiyati va xalqaro bozorlarga moslashuvchanligini baholashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, texnologik yangilanish, ishlab chiqarish omillarining sifati va klasterlashuv jarayonlari uning konsepsiyasida markaziy o'rin egallaydi.

J. Sachs va J. Stiglitzning ilmiy ishlari globallashtirish va savdo liberallashtirishning rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan. Sachs xalqaro savdo tizimiga integratsiyalashuvni iqtisodiy o'sishning muhim omili sifatida baholaydi va eksportga yo'naltirilgan sanoatni rivojlantirish texnologik transformatsiyani jadallashtirishini ta'kidlaydi. Stiglitz esa JST va global bozor qoidalarining rivojlanayotgan davlatlar uchun bir xil imkoniyat yaratmasligini, ayniqsa subsidiyalar va texnologik tengsizlik masalalari iqtisodiy nomutanosibliklarni kuchaytirishini qayd etadi. Uning fikricha, davlatning vazifasi to'g'ridan to'g'ri proteksionizm emas, balki innovatsion infratuzilma va inson kapitalini rivojlantirishdan iborat bo'lishi kerak.

R. Nelson va S. Winterlarning evolyutsion iqtisodiyot nazariyasida korxonalarining raqobatbardoshligi texnologik moslashuvchanlik va innovatsion qobiliyat bilan bog'lanadi. Mualliflar innovatsiyalarni korxonaning uzoq muddatli ustunligi sifatida talqin qilib, texnologik eskirish va modernizatsiya sur'atlari sanoat korxonalarining xalqaro bozordagi mavqeini belgilashini asoslaydi. Ushbu yondashuv JST sharoitida texnologik standartlarga moslashish va energiya samaradorligini oshirish masalalarini tahlil qilishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Xalqaro tashkilotlar, xususan, Jahon banki, OECD va WIPO hisobotlarida innovatsion rivojlanish hamda xalqaro raqobatbardoshlik o'rtasidagi uzviy bog'liqlik alohida qayd etilgan. WIPO tomonidan e'lon qilinadigan Global innovatsion indeks mamlakatlarning innovatsion salohiyatini baholash orqali ularning texnologik tayyorgarlik darajasi va iqtisodiy modernizatsiya imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Tadqiqotlarda innovatsion infratuzilmaga investitsiyalarni oshirish, ilmiy tadqiqotlarni tijoratlashtirish hamda yuqori texnologiyali ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish xalqaro raqobatbardoshlikning asosiy sharti sifatida talqin etiladi.

JSTning Subsidiyalar va kompensatsiya choralarini bo'yicha bitimi bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda davlat tomonidan iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining transformatsiyasi masalasi keng yoritilgan. A.O. Krugger, B. Hoekman va P. Mavroidis kabi olimlar JST qoidalarini sharoitida eksport subsidiyalari va selektiv imtiyozlarning cheklanishi natijasida davlat siyosati "to'g'ridan to'g'ri moliyalashtirish"dan "institutsional rivojlantirish" modeliga o'tishini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, infratuzilma, ilmiy tadqiqotlar, ekologik modernizatsiya va standartlashtirishni qo'llab-quvvatlash JST tomonidan ruxsat etilgan "Yashil savat" mexanizmlarining asosini tashkil etadi.

MDH va Markaziy Osiyo mamlakatlari iqtisodiyotida JSTga integratsiyalashuv masalalari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda sanoat korxonalarining texnologik nomutanosibligi va moliyaviy zaifligi asosiy muammo sifatida ko'rsatiladi. Rossiyalik iqtisodchi olimlar S. Glazyev va V. Inozemtsev sanoat modernizatsiyasining sustligi, kapital oqimining cheklanishi va tashqi texnologik qaramlik milliy korxonalarining global bozordagi mavqeini pasaytirishini qayd etganlar. Qozog'iston va Qirg'iziston tajribalariga bag'ishlangan tadqiqotlarda esa JSTga a'zolikdan keyin import bosimining kuchayishi natijasida past texnologiyali korxonalar faoliyati sezilarli



qisqargani ta'kidlangan. O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan ham korxonalar raqobatbardoshligi va JSTga integratsiyalashuv masalalari keng o'rganilgan. Xususan, A. Rasulov, S. G'ulomov, B. Berkinov, N. Jumaev va boshqa olimlarning tadqiqotlarida sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, eksport salohiyatini oshirish, hududiy sanoatni diversifikatsiyalash va innovatsion iqtisodiyotga o'tish masalalari tahlil qilingan. Mazkur tadqiqotlarda korxonalarining moliyaviy barqarorligi, energiya samaradorligi va xalqaro standartlashtirish darajasi xalqaro raqobatbardoshlikning muhim omillari sifatida baholanadi.

Shuningdek, mahalliy ilmiy ishlarda hududiy tafovutlar muammosi ham alohida o'rganilgan. Tadqiqotlarda Toshkent shahri va yirik sanoatlashgan hududlarda innovatsion faollik yuqori bo'lsa-da, chekka viloyatlarda asosiy fondlarning eskirishi, likvidlikning pastligi va xalqaro sertifikatlash darajasining sustligi korxonalarining JST sharoitidagi raqobatbardoshligini pasaytiruvchi asosiy omillar sifatida qayd etiladi. Shu bilan birga, aksariyat ilmiy ishlarda texnologik va moliyaviy raqobatbardoshlikning hududlar kesimidagi kompleks tahlili yetarlicha yoritilmaganligi kuzatiladi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, JST sharoitida korxonalar raqobatbardoshligini oshirish masalasi ko'proq innovatsion rivojlanish, texnologik modernizatsiya va institutsional transformatsiya bilan bog'liq holda o'rganilgan. Biroq mavjud tadqiqotlarda O'zbekiston hududiy sanoat korxonalarining texnologik va moliyaviy raqobatbardoshligini JSTning SCM bitimi, xalqaro standartlashtirish talablari hamda "Yashil savat" mexanizmlari asosida kompleks baholash yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Shu jihatdan mazkur tadqiqot hududiy korxonalarining JST sharoitiga moslashuv darajasi, texnologik transformatsiya muammolari va moliyaviy barqarorligini tizimli tahlil qilish orqali ilmiy adabiyotlarda mavjud bo'lgan bo'shliqni to'ldirishga xizmat qiladi, deb hisoblaymiz.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot ishimizda O'zbekiston korxonalarining Jahon savdo tashkiloti (JST) talablari doirasidagi xalqaro raqobatbardoshligini baholashda kompleks tizimli yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini iqtisodiy-statistik tahlil, qiyosiy tahlil, SWOT tahlil, institutsional yondashuv hamda dinamik kuzatuv usullari tashkil etdi. Tadqiqot davomida WIPO Global Innovation Index, Jahon banki, OECD, WTO va O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlari asosiy empirik manba sifatida qo'llanildi.

Korxonalarining texnologik raqobatbardoshligini baholashda asosiy fondlarning eskirish darajasi, innovatsion faollik koeffitsiyenti, xalqaro sertifikatlash darajasi va energiya sig'imi ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Moliyaviy raqobatbardoshlikni aniqlashda esa mutlaq likvidlik, rentabellik hamda debitorlik va kreditorlik qarzlari nisbatlari asosiy indikator sifatida olindi. Hududlar kesimida olingan ma'lumotlar o'zaro qiyoslanib, sanoat korxonalarining JST sharoitidagi imkoniyat va xavf-xatarlari aniqlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga (JST) a'zo bo'lish jarayonining jadallashishi milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlari, xususan, hududiy sanoat korxonalarini oldiga tub tarkibiy o'zgarishlar va modernizatsiya vazifalarini qo'yimoqda. Erkin savdo tartibiga o'tish va bojxona-tarif himoyasining pasayishi sharoitida hududiy ishlab chiqaruvchilarning tashqi bozorlardagi omon qolishi va barqaror rivojlanishi bevosita ularning texnologik va moliyaviy raqobatbardoshlik darajasiga bog'liqdir. Baholash jarayoni ikki asosiy yo'nalish — texnologik tayyorgarlik va innovatsion faollik darajasi hamda moliyaviy barqarorlik va likvidlik ko'rsatkichlari bo'yicha amalga oshirilgan. Mamlakatimiz korxonalarining texnologik raqobatbardoshligi holati to'g'ridan to'g'ri hududiy sanoat korxonalarining texnologik transformatsiyasidagi nomutanosibliklarni aks ettiradi. Texnologik raqobatbardoshlik — bu korxonaning JST texnik cheklovlari va xalqaro standartlar talablariga mos keladigan, energiya va resurs tejaydigan hamda yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarish qobiliyatidir. Texnologik raqobatbardoshlik bevosita innovatsiyalar va ularning joriy etilishi bilan bog'liq bo'lib, bu yo'nalishda mamlakatimizning xalqaro innovatsion reytingidagi holati asosida tavsiflash maqsadga muvofiq bo'ladi (1-jadval).

1-jadval. Global Innovatsion Indeks (GII) reytingida yetakchi mamlakatlar, MDH va Markaziy Osiyo davlatlarining o'rne qiyosiy tahlili.

	Davlatlar	2015-yil	2020-yil	2025-yil	2025-yildagi GII indeksi
Global innovatsion yetakchilar (Top-5)	Shveytsariya	1	1	1	66.0
	Shvetsiya	3	2	2	62.6
	AQSh	5	3	3	61.7
	Koreya Respublikasi	14	10	4	60.0
	Singapur	7	8	5	59.9
MDH davlatlari	Rossiya Federatsiyasi	48	47	60	30.3
	Armaniston	61	61	59	30.5
	Ukraina	64	45	66	29.7
	Belarus	53	64	85	25.1
Markaziy Osiyo davlatlari	O'zbekiston	(122)	93	79	26.5
	Qozog'iston	82	77	81	26.3
	Qirg'iziston	109	94	96	22.6
	Tojikiston	114	109	108	21.0

Manba: Jahon intellektual mulk tashkiloti (WIPO)ning "Global Innovation Index 2015, 2020, 2025" rasmiy hisobotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, Shveytsariya, Shvetsiya va AQSh kabi an'anaviy yetakchi davlatlar o'n yillardan buyon innovatsion ekotizimning institutsional va texnologik ustunligi evaziga yetakchi uchlikni saqlab kelmoqda. Koreya Respublikasi va Singapurning yuksalishi esa Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi "chuqur yuqori texnologiyalar" va yarimo'tkazgichlar sanoatiga qilingan investitsiyalar natijasidir.

MDH hududida kuzatilgan institutsional muammolar tufayli 2020–2025-yillarda Rossiya (47-o'ringa) va Belarus (64-o'ringa) reytinglarida jiddiy pasayish kuzatilgan. Bu holat tashqi cheklovlar va xalqaro iqtisodiy omillar, xalqaro texnologik zanjirlardan uzilish hamda kapital va intellektual mulk (kadrlar) oqimining cheklanishi bilan izohlanadi.

Markaziy Osiyo mintaqasida O'zbekistonning innovatsion rivojlanish borasida yuqori natijalarni qayd etayotgani ushbu sohaga qaratilayotgan e'tibor, strategik hamkorlik va investitsion faollik bilan izohlanadi. O'zbekiston 2015-yilda ma'lumotlar yetarli bo'lmagani sababli indeksga kiritilmagan bo'lsa, 2020-yilda 93-o'rinni egallagan, 2025-yilga kelib esa 79-o'ringa ko'tarilgan. Bu holat mamlakatning mintaqada innovatsion salohiyatini bosqichma-bosqich mustahkamlab borayotganini ko'rsatadi.

Bunda WIPO ekspertlari O'zbekistonni o'z yalpi ichki mahsuloti darajasiga nisbatan innovatsiyalar sohasida kutilganidan yuqori natija ko'rsatayotgan davlatlar qatoriga kiritgan. Mamlakatda "Innovatsion resurslar" bo'yicha, ya'ni ta'limni moliyalashtirish va infratuzilmaga yo'naltirilgan davlat xarajatlari yuqori samaradorlik bermoqda.

JST qoidalari (masalan, SCM bitimi) aynan reytingda past bo'lgan "Ijodiy mahsulotlar eksporti" va "Yuqori texnologiyali ishlab chiqarish" kabi ko'rsatkichlarni to'g'ridan to'g'ri subsidiyalashni taqiqlagani sababli, O'zbekiston davlat ko'magini "Yashil savat" tamoyillari asosida institutlarni va ilmiy-tadqiqot infratuzilmasini yaxshilashga qaratishi lozim.

Bundan tashqari, hozirda respublika hududlarida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalarining texnologik tarkibini o'rganish shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarish quvvatlarining asosiy qismi hali ham past texnologiyali (low-tech) va o'rta-past texnologiyali (medium-low-tech) tarmoqlarga to'g'ri kelmoqda. Eng yuqori texnologik unumdorlik va raqobatbardoshlik Toshkent shahri (ekosistemaning 108 mingdan ortiq korxonani birlashtirishi evaziga) hamda Navoiy va Toshkent viloyatlaridagi yirik metallurgiya va kimyo majmualarida kuzatiladi. Biroq Farg'ona, Namangan, Andijon va Xorazm viloyatlaridagi agrosanoat va to'qimachilik korxonalarida texnologik eskirish koeffitsiyenti o'rtacha 42–48 foizni tashkil etmoqda. Texnologik raqobatbardoshlikni pasaytiruvchi asosiy omillar quyidagilardan iborat:

- Asosiy fondlarning amortizatsiyasi: sanoat tarmoqlarida mashina va uskunar yangilanish darajasi yiliga 7–9 foizdan oshmayapti. Bu esa xalqaro bozorlardagi texnologik sikllardan ancha orqada qolayotganini anglatadi.

- Energiya sig'imining yuqoriligi: O'zbekiston hududiy korxonalarida mahsulot birligiga sarflanadigan energiya miqdori Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) davlatlariga nisbatan o'rtacha 2,5–3



barobar yuqori. JST doirasida energiya resurslari subsidiyalarining bosqichma-bosqich bekor qilinishi ushbu korxonalarining tannarx bo'yicha raqobatdoshligini keskin pasaytirish ehtimolini yuzaga keltiradi.

• Xalqaro standartlashtirishning past darajasi: mamlakatimizdagi korxonalarining faqatgina 14–16 foizi ISO 9001, ISO 14001 va CE kabi xalqaro sertifikatlarga ega. Bu holat JSTga a'zo davlatlar bozorlariga chiqishda "texnik to'siqlar" muammosini keltirib chiqarishi mumkin.

Statistik tahlillar shuni ko'rsatadiki, kichik biznes subyektlarining sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 33,2 foizni tashkil etsa-da, ularning ilmiy tadqiqotlarga yo'naltiradigan mablag'lari umumiy daromadlarining 0,2 foizidan ham kamroq qismini tashkil etadi. Bu esa innovatsion mahsulotlar ulushining kamayishiga va korxonalarining texnologik jihatdan import uskunalar yetkazib beruvchilarga qaram bo'lib qolishiga olib kelmoqda.

Moliyaviy raqobatbardoshlik kategoriyasi korxonaning investitsion jozibadorligi, o'z-o'zini moliyalashtirish salohiyati, likvidligi va kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlari bilan xarakterlanadi. JST qoidalari (xususan, Subsidiyalar va kompensatsiya choralari bo'yicha bitim — SCM) davlat tomonidan mahalliy korxonalariga to'g'ridan to'g'ri moliyaviy dotatsiyalar, eksport subsidiyalari va imtiyozli kreditlar ajratishni qat'iy cheklaydi. Shu sababli korxonalarining sof bozor sharoitidagi moliyaviy barqarorligini baholash muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi davrda O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining moliyaviy holati chuqur segmentatsiyalashgan, deb hisoblash mumkin. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar (asosan Xitoy, Rossiya va Turkiya kapitali asosida) yuqori moliyaviy barqarorlik va rentabellik ko'rsatkichlariga egaligi bilan ajralib turadi. Biroq sof mahalliy xususiy kapitalga asoslangan va hududiy ahamiyatga ega bo'lgan o'rta va kichik korxonalarda moliyaviy zaiflik belgilari kuzatilmoqda. Quyidagi jadvalda O'zbekistonning tanlangan iqtisodiy hududlari kesimida sanoat korxonalarining texnologik va moliyaviy raqobatbardoshligini xarakterlovchi asosiy ko'rsatkichlar keltirilgan (2-jadval).

2-jadval. O'zbekiston hududlari korxonalarining 2024–2025-yillarda texnologik va moliyaviy raqobatbardoshlik ko'rsatkichlari qiyosiy tahlili.¹

Tr	Hududlar	Asosiy fondlar eskirish darajasi, %	Innovatsion faollik koeffitsiyenti	Xalqaro sertifikatli korxonalar ulushi, %	Mutloq likvidlilik koeffitsiyenti	Korxonalar rentabelligi, %	Debitorlik va kreditorlik qarzlari nisbati
1	Toshkent shahri	28.4	1.45	34.2	0.28	14.5	1.12
2	Navoiy viloyati	31.2	1.10	28.5	0.24	13.8	1.05
3	Toshkent viloyati	36.2	0.62	22.1	0.19	11.2	0.85
4	Buxoro viloyati	38.5	0.55	19.4	0.18	10.4	0.82
5	Andijon viloyati	39.1	0.58	21.0	0.17	10.1	0.79
6	Samarqand viloyati	41.5	0.48	16.8	0.16	9.4	0.74
7	Farg'ona viloyati	44.1	0.35	14.5	0.14	8.1	0.68
8	Namangan viloyati	43.8	0.32	15.2	0.15	8.3	0.71
9	Qashqadaryo viloyati	42.6	0.40	13.8	0.13	7.9	0.65
10	Sirdaryo viloyati	45.2	0.28	12.4	0.14	7.6	0.63
11	Xorazm viloyati	46.8	0.22	11.2	0.12	7.3	0.61
12	Jizzax viloyati	44.5	0.30	12.9	0.13	7.8	0.66
13	Surxondaryo viloyati	47.2	0.18	9.5	0.11	6.8	0.58
14	Qoraqalpog'iston Resp.	45.9	0.25	10.8	0.12	7.1	0.60
-	Respublika bo'yicha o'rtacha	39.4	0.62	19.8	0.18	10.1	0.80

Jadval ma'lumotlarining tahlili O'zbekiston sanoatidagi hududiy qutblashuv tendensiyasi mavjudligini yaqqol ko'rsatmoqda. Bunda poytaxt va hududlar o'rtasida jiddiy uzilishlar mavjud bo'lib, Xorazm va Farg'ona

1 Davlat Statistika agentligi va Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

viloyatlari sanoat korxonalaridagi asosiy fondlarning eskirish darajasi tegishli 46,8% va 44,1%ni tashkil etib, respublika o'rtacha ko'rsatkichidan (39,4%) yuqoridir. Bu bevosita ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning texnologik sifati pastligi va tannarxining yuqoriligiga sabab bo'ladi. Texnologik yetakchi hududlar (Toshkent sh., Navoiy va Toshkent viloyatlari)da yirik tog'-kon, metallurgiya, kimyo va avtomobilsozlik sanoati majmualari jamlangani sababli asosiy fondlarning eskirish darajasi eng past (28,4%–36,2% oralig'ida) va innovatsion faollik ko'rsatkichlari ham ancha yuqori bo'lmoqda. Navoiy viloyatida ilmiy tadqiqot ishlariga xarajatlarning ulushi (1,10%) va xalqaro sertifikatlanish darajasi (28,5%) NKMK kabi yirik korxonalar hisobiga respublika o'rtacha darajasidan ancha balandligi kuzatilgan.

O'rta texnologik va agrosanoat hududlari (Andijon, Buxoro, Samarqand viloyatlari) barqaror diversifikatsiyalashgan sanoat bazasiga ega. Masalan, Andijon viloyatida mashinasozlik va klaster tizimi rivojlangani sababli innovatsion faollik 0,58%ni, xalqaro sertifikatlar ulushi esa 21,0%ni tashkil etadi. Biroq texnik jihozlanish asosan o'rta texnologik darajada qolmoqda. Texnologik va moliyaviy xavf guruhlari (Surxondaryo, Xorazm, Sirdaryo viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi) ushbu hududlarni JST sharoitida import bosimiga eng ta'sirchan segment deb hisoblash mumkin. Xususan, Surxondaryo viloyatida asosiy fondlarning eskirishi eng yuqori (47,2%), innovatsion faollik esa eng past (0,18%) ko'rsatkichni qayd etgan. Moliyaviy likvidlilik Surxondaryo (0,11), Xorazm (0,12) va Qoraqalpog'istonda (0,12) kritik darajada past bo'lib, bu korxonalarining erkin savdo rejimida xorijiy arzon import mahsulotlari bilan raqobatlasha olmaslik va qisqa muddatda bankrotlik yoqasiga kelib qolish xavfini oshiradi, deyish mumkin.

Moliyaviy ko'rsatkichlar tahlili hududlar kesimida ayrim tafovutlar mavjudligini ko'rsatadi. Jumladan, mutlaq likvidlilik koeffitsiyenti Toshkent shahrida nisbatan barqaror darajada shakllangan bo'lsa, boshqa hududlarda ushbu ko'rsatkich 0,12–0,19 oralig'ida qayd etilmoqda. Bu holat korxonalarining qisqa muddatli majburiyatlarni bajarish va tashqi iqtisodiy o'zgarishlarga moslashish imkoniyatlari hududlar bo'yicha turlicha ekanligini ko'rsatadi.

Aktivlar rentabelligi ko'rsatkichi Toshkent shahrida 14,5 foizni tashkil etgani holda, ayrim hududlarda, xususan, Xorazm viloyatida 7,3 foiz darajasida shakllangan. Bu esa korxonalar aktivlaridan foydalanish samaradorligi bo'yicha hududiy farqlar mavjudligini anglatadi.

Debitorlik va kreditorlik qarzlari nisbati respublika bo'yicha o'rtacha 0,80 darajasida bo'lib, ayrim korxonalarda aylanma mablag'larni boshqarish jarayonlarini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Kreditorlik qarzlarning debitorlik qarzlari nisbatan yuqoriroq shakllanishi korxonalarining moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlariga hamda modernizatsiya tadbirlarini moliyalashtirish salohiyatiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Mamlakatimiz korxonalarining raqobatbardoshligini baholash jarayonida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining JST talablari bilan muvofiqlik darajasini o'rganish muhim metodologik masalalardan biri hisoblanadi. O'zbekiston iqtisodiyotini erkinlashtirish doirasida uzoq yillar davomida hududiy ishlab chiqaruvchilarga soliq imtiyozlari, bojxona preferensiyalari va past foizli maqsadli kreditlar (subsidiyalangan stavkalarda) berib kelinmoqda. JSTning SCM, ya'ni Subsidiyalar va kompensatsiya choralari bo'yicha bitimiga ko'ra, davlat tomonidan taqdim etiladigan subsidiyalar 3 ta toifaga bo'linadi:

Taqiqlangan subsidiyalar, ya'ni to'g'ridan to'g'ri eksport ko'rsatkichlariga yoki mahalliy xomashyodan foydalanish shartiga bog'langan subsidiyalar. O'zbekiston JSTga to'liq a'zo bo'lgach, eksportyor korxonalariga beriladigan ko'plab soliq va transport imtiyozlari taqiqlanishi mumkin. Bu esa, asosan, eksportga yo'naltirilgan to'qimachilik va meva-sabzavot klasterlarining moliyaviy rentabelligi hamda barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Chora ko'rish mumkin bo'lgan subsidiyalar, ya'ni muayyan bir hudud yoki tarmoq korxonalariga xos bo'lgan, maxsus tashkillashtirilgan va boshqa a'zo davlatlar manfaatlariga zarar yetkazadigan subsidiyalar. Maxsus iqtisodiy zonalarda taqdim etilayotgan ayrim selektiv soliq imtiyozlari kelgusida JST a'zolari tomonidan e'tirozlarga sabab bo'lishi va kompensatsiya bojlari qo'llanilishiga olib kelishi mumkin.

Chora ko'rilmaydigan subsidiyalar umumiy xarakterga ega, bozor qonuniyatlarini buzmaydigan yordam turlari, ya'ni ITTKIn moliyalashtirish, ekologik modernizatsiya, mintaqaviy rivojlanish uchun infratuzilma yaratishni o'z ichiga oladi. Respublikamizdagi ko'plab mahalliy korxonalarida aynan mana shu toifadagi subsidiyalardan foydalanish ko'nikmasi past darajada, deyish mumkin.

Shunday qilib, amaldagi moliyaviy tizim mexanizmlari ta'sirida korxonalarida davlat imtiyozlariga tayanish amaliyoti shakllangan.

Texnologik rivojlanish nuqtai nazaridan korxonalarining ishlab chiqarish jarayonlari ko'proq ichki bozor ehtiyojlariga yo'naltirilgan bo'lib, ularning xalqaro ishlab chiqarish va qiymat zanjirlaridagi ishtirokini kuchaytirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Mavjud holat tahlili asosida O'zbekiston hududiy korxonalarining JST sharoitidagi texnologik va moliyaviy holatini aks ettiruvchi umumlashtirilgan tarkibiy tahlil sxemasi (SWOT) shakllantirilib maqsadga muvofiq bo'ladi, deb hisoblaymiz.



Kuchli tomonlar (Strengths)	Zaif tomonlar (Weaknesses)
<p>Hududlarda arzon va nisbatan malakali mehnat resurslarining mavjudligi.</p> <p>Mahalliy xomashyo bazasining (paxta, ipak, tabiiy gaz, kimyoviy resurslar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari) yetarliligi.</p> <p>Yirik hududlarda xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar dinamikasining yuqoriligi.</p> <p>Raqamli infratuzilmaning ("Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida) rivojlanib borayotgani.</p>	<p>Sanoat uskunalarning yuqori darajada ma'naviy va jismoniy eskirganligi.</p> <p>Korxonalarda mutlaq likvidlilik ko'rsatkichlarining pastligi va surunkali debitorlik-kreditorlik qarzlari.</p> <p>Ilm-fanga xarajatlarining juda past ulushi va innovatsiyalarni tijoratlashtirish tizimining sustligi.</p> <p>Xalqaro ekologik va texnik standartlar (ISO/CE) sertifikatlariga ega korxonalarining kamligi.</p>
Imkoniyatlar (Opportunities)	Xavf-xatarlar (Threats)
<p>JSTga a'zolik orqali 160 dan ortiq davlatlar bozorlariga kamsitishsiz, eng qulay shartlarda chiqish. Global qiymat zanjirlariga integratsiyalashuv va transmilliy korporatsiyalarning texnologik litsenziyalarini jalb qilish. "Yashil" va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish orqali xalqaro grantlar va venchur fondlarini jalb etish.</p> <p>Davlat ko'magini "Yashil savat" mexanizmlariga o'tkazish orqali infratuzilmani tubdan yangilash.</p>	<p>Bojxona tariflari pasaytirilishi ortidan ichki bozorda xorijiy transmilliy kompaniyalar tomonidan import hajmining oshishi. Jahon savdo tashkiloti (JST) talablari sababli eksportni to'g'ridan-to'g'ri moliyaviy subsidiyalash imkoniyatlarining cheklanishi. Energetika sohasidagi tarkibiy islohotlar (narxlarning bozor mexanizmlariga o'tishi) natijasida energiya sarfi yuqori bo'lgan korxonalarining moliyaviy barqarorligiga ta'sir ko'rsatish ehtimoli. Malakali mutaxassislarning xorijiy yoki qo'shma korxonalariga jalb etilishi</p>

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlillar mamlakatimiz korxonalarining texnologik va moliyaviy raqobatbardoshligi hududlar bo'yicha bir xil darajada shakllanmaganini ko'rsatadi. Toshkent shahri va sanoatlashgan ayrim hududlarda nisbatan yuqori ko'rsatkichlar qayd etilgan bo'lsa, boshqa viloyatlarda likvidlilikni oshirish, energiya sarfini optimallashtirish hamda texnologik bazani yangilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar zarurligi kuzatiladi. Bu esa JST sharoitida korxonalar raqobatbardoshligini bosqichma-bosqich kuchaytirish muhimligini anglatadi.

JST talablariga moslashish jarayonida an'anaviy proteksionistik yondashuvlar va ayrim to'g'ridan to'g'ri moliyaviy qo'llab-quvvatlash shakllarini takomillashtirish zarurati yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli hududiy siyosatda individual imtiyozlardan ko'ra, innovatsion infratuzilmani rivojlantirish, xalqaro standartlarga moslashuvni qo'llab-quvvatlash va energiya samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi "yashil savat" mexanizmlariga ustuvorlik berish ilmiy-amaliy jihatdan asosli hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- Nelson R., Winter S. *An Evolutionary Theory of Economic Change*. — Cambridge: Harvard University Press, 1982. — 454 p.
- Hoekman B., Kostecki M. *The Political Economy of the World Trading System: The WTO and Beyond*. — Oxford: Oxford University Press, 2009. — 768 p.
- Мадрахимов К. (2024). Минтақавий иқтисодий сиёсатнинг стратегик устувор йўналишлари. *SCIENCEPROBLEMS.UZ*. Учредители: ООО "Scienceproblems team", 4, 152–161.
- World Intellectual Property Organization (WIPO). *Global Innovation Index 2025*. — Geneva: WIPO Publications, 2025. — 412 p.
- Мадрахимов К. Э. (2024). Минтақавий иқтисодий сиёсатнинг мақсадли амалга ошириш йўналишлари. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, 4(04), 231–239.
- World Intellectual Property Organization (WIPO). *Global Innovation Index 2015*. — Geneva: WIPO Publications, 2015. — 376 p.
- OECD. *OECD Science, Technology and Innovation Outlook 2023*. — Paris: OECD Publishing, 2023. — 520 p.
- Мадрахимов К. Э. (2024). Худудларнинг иқтисодий ривожланишининг ному таносиблигини бартараф этиш усуллари. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, 4(07), 193–201.
- Мадрахимов К. Э. (2024). Республика худудларининг иқтисодий ривожланиш даражасини таҳлил қилиш. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, 4(05), 126–131.
- Glazyev S. Yu. *Strategiya operejayushchego razvitiya Rossii v usloviyax globalnogo krizisa*. — Moskva: Ekonomika, 2020. — 512 s.
- Мадрахимов К. Э., Цыцзы Мавланова Б. С., Шарипова З. А. (2025, июнь). Зеленая экономика: глобальные тенденции, вызовы и перспективы устойчивого развития. В сборнике трудов *Конференции современной науки и педагогики* (Том 1, № 3, стр. 29–32).



12. Эгамбергенович М. К., Алиян ўғли С. С. (2025, июнь). Проблемы и решения для обеспечения занятости молодежи в цифровой экономике. В *Конференции современной науки и педагогики* (Том 1, № 3, стр. 47–51).
13. Rasulov A. *O'zbekiston iqtisodiyotining xalqaro integratsiyalashuv masalalari*. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2020. — 288 b.
14. Berkinov B. *Sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini boshqarish mexanizmlari*. — Toshkent: Fan, 2022. — 264 b.
15. Jumaev N. *Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishning institutsional omillari*. — Toshkent: Universitet, 2021. — 301 b.
16. Madraximov Q.E. *Mintaqaviy iqtisodiy siyosatning strategik ustuvor yo'nalishlari*. *Scienceproblems.uz ijtimoiy-gumanitar dolzarb muammolari*, № 5/9 (4), 2024, 152–161-betlar. ISSN 2181-1342 (Online). Sayt: <https://scienceproblems.uz> DOI:10.47390/SPR1342V4S19Y2024.
17. World Trade Organization. *Agreement on Subsidies and Countervailing Measures (SCM Agreement)*. — Geneva: WTO Publications, 2024. — 164 p.
18. United Nations Industrial Development Organization (UNIDO). *Industrial Development Report 2024: Turning Challenges into Sustainable Industrialization*. — Vienna: UNIDO, 2024. — 430 p.

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100